



OTMAGAY TONG ASHULASI TALABALAR IZLANISHLARIDA

Muallif: Yusupova Saodatoy Shuxratbek qizi¹, Maksumova F.Q²

Affilyatsiya: Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlar va san'at fakulteti, Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrasida talabasi¹, ADPI o'qituvchisi²

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14383749>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonning milliy bastakorlik ijodiyotining qator kuy-ashulalarini yosh avlodga yetkazish oliy maqsaddir. Biz kabi yoshlar birlashib, milliylikimiz, qadriyatlarimizni saqlab qolishimiz yoritilgan. Bastakorlik ijodining yorqin namunasi "Otmagay tong" asarini keng tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: Bastakorlik, Otmagay tong, ijod, asar, folklyor, milliy maktab

Bastakorlik ijodiyotining betakror namunalaridan biri hisoblangan "Otmagay tong" asari bugungi kunda ham o'z tinglovchisi va ijrochisini yo'qotmagan. Bilamiz-ki, bastakorlikdan oldin folklyor san'ati vujudga kegan. Folklyor deganda ma'lum millat asr davomida yaratgan san'at namunalari: qo'l mehnati bo'lmish so'zanalar, ohangi ila qalbgacha kiruvchi xalq kuylari, harakatlari bilan sehrlovchi raqslar va boshqalar tushuniladi. Bastakorlik ijodiyotini biz bir-biridan kelib chiqqan ikki qatlamga bo'lishimiz mumkin. Birinchi - qatlam xalq musiqa ijodiyoti ya'ni xalq tomonidan yaratilib kelingan folklyor musiqasi. Ikkinchisi esa bastakorlik ijodiyoti natijasida tashkil topgan mumtoz musiqiy asarlardir.

Al Kindiy, Abu Abdulloh, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changi kabi allomalarning musiqa ilmiga bag'ishlangan risolalarida, musiqa zamonasi kesimida bayon etilgan. "Otmagay tong" musiqasini To'xtasin Jalilov she'rini Sobir Abdulla yozgan. To'xtasin Jalilov 1985-yil Andijon shahrining Soyguzar mahallasida dunyoga kelgan. Yoshligida o'zbek milliy musiqa asboblaridan tanbur, dutor, g'ijjak, doira chalgan. To'xtasin Jalilov orkestr uchun "Otmagay tong", "Ey quyosh" hamda Sobir Abdulla she'riga "To'ylar muborak" qo'shiqlarini bastalagan. To'xtasin Jalilov 1918-1920-yillarda tashviqot brigadasida xonanda va sozanda bo'lib faoliyat yuritgan. 1923-1926 yillarda milliy musiqa to'garagida, 1919-1929 yillar Andijon musiqali drama teatrida ishlagan. 1930-yillarda O'zbek milliy cholg'u asboblarini yig'ib 100 kishilik orkestr tuzgan. To'xtasin Jalilov 1966-yil Toshkentda vafot etgan.

O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan. Abdullayev Sobir 1905-yili Farg'ona viloyatida Qo'qon tumanida tavallud topgan. Dastlab "eski maktab" so'ngra "usuli jadid" maktabini tugatgan. Qo'qon Pedagogika bilim yurtida keyin esa Toshkent

mahalliy kadrlar tayyorlash kursida o'qigan. 1926-1948-yillar Yosh Leninchi, Yangi Farg'ona gazetalarida adabiy hodim, "Mushtum" jurnalida bo'lim mudiri, Andijon davlat teatrida O'zbek davlat filarmoniyasi va Muqimiy nomidagi teatrdan adabiy emakdosh bo'lib ishlagan. 1972-yil 24-oktyabrda favot etgan.

Abdullayev Sobir O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi va O'zbekiston xalq shoiri unvonlariga sazovor bo'lgan. Shoirning qalamiga mansub g'azal asosida yaratilgan betakror san'at namunasi bo'lgan "Otmagay tong" asari bilan tanishamiz.

Otmagay tong bog'aro azming xirmon bo'lmasa
Bulbuli shaydolarining gulshanda nolon bo'lmasa
Qaydan ishq o'tig'a davo aylasun parvonalar
Parpirab bag'rim yoquvchi shami jonon bo'lmasa
Shamidek kuygay hamisha jismi jonim men netay
Birgina parvona ham qo'shingda mehmon bo'lmasa
Sancha ber so'zdin tikanlar ko'ksimga ey g'uncha lab
Ne qilay bu jonnikiy yo'lingda qurbon bo'lmasa

Asarning birinchi xatida Otmaydi tongim agar sen bog'ga kelmasang, bulbuldek shaydolarin gul uzra parvoz etmasa mazmunini tushunish mumkin. (Bu asrni so'zlarini tahlil qilar ekanmiz, bu sohadagi katta professor o'qituvchilardan uzur so'raymiz. Biz bu sohaning yosh targ'ibotchisi sifatida endigina kirib kelmoqdamiz, bilganimiz qadar tushunganimiz qadar tahlil etmoqdamiz. Xato kamchiliklari uchun uzur so'raymiz.)

Ikkinchi xatida esa Sobir Abdulla Oshiqklarining parvona sen shamdeksan agar senga bo'lmasang ular o'zini qayga urar demaqoda bu satrlarda.

Uchinchi Birgina oshig'ing ham qoshinga kelolmasa Ey g'unch lab ne tikandek so'zlaringni ayta ber.

To'rtinchi xatida esa Nima qilaman bu jonni agar sening ishqingda o'lmasa, nega kerak bu jon yo'lingda qurbon bo'lmasa deb yakunlanmoqda.

Kuy tahlili asar Farg'ona-Toshkent hududiga hos katta ashula janrida yozilgan. Asarning har bir xati maqom ashula shakliga mos daromad, miyonxat, dunasr va furovard kabi boshqichlarni ko'rsatsa-da, har bir xatning ikkinchi qatori avjga qarab bir oktava yuqorida ijro etilmoqda. Shu bilan kuyni bezovchi hanglar ham pastdan yuqoriga qarab harakatlanamoqda. Bu esa faqatgina Farg'ona-Toshkent vohasiga hos "Katta ashula" janrining kuy shakliga o'xshaydi. Bu esa bastakorning nechog'lik mohirligini isbotidir.

Ohang va so'z "Otmagay tong" asarida mutanosibdir. "Otmagay tong" asari go'yo bir onadir. Undagi so'z va ohang uning ikki bolasidir. Hech bir ona bir bolasini ikkinchi bolasidan ajratmaydi-ku, shunday ekan biz ham asarni so'zini musiqasidan holi qabul qilishimiz dargumon. Ona ikkisiga teng mehr qo'yadi, chunki ular o'z jonini bir parchasidir. Onaga ikki farzandisiz bu jon butun bo'lmaydi. "Otmagay tong" asarida ham huddi shunday ohang va so'z bir butun jondir.

Zamonamiz shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda chet eldan kirib kelayotgan, pop, rock, estrada musiqalarini sanab o'tishimiz mumkin. To'g'ri ijtimoiy hayotda zamon bilan hamnafas bo'lish kerak ammo hamma elatlar, millatlar, har bir davlat o'z milliy an'alarini saqlab qolishga intiladi. Xususan, biz ham, millatimiz g'ururi va faxri bo'lmish milliy kuy-ohanglarimizni unutmashimiz, baralla targ'ib qilishdan tolmasligimiz kerak. Lekin hozir bizda o'z milliy an'alaridan-da ko'proq chet estrada va

boshqa qo'shiqlarga ehtiyoj ko'paygan. Nega har bir davlat, elat o'z milliy qadriyatlarini, an'analarini, musiqiy merosini asrab-avaylab o'z milliyligini kelajak avlodga yetkazish payida lekin biz nima qilyapmiz

Yechim bizning milliy etnik musiqalarimizni o'sib borayotgan yosh avlodga yetkazish biz kabi yosh targ'ibotchilarni yanada ko'paytirish lozim. Bir inson tug'ilib, o'sib borar ekan u o'zini, ota-onasini, davlati, millatini, o'z tarixini tanishga, bilib o'rganishga harakat qiladi. Biz o'sib borayotgan yosh avlodga o'z milliy tariximiz etnik musiqalarimizni tanitib borishimiz zarur. Bizning yosh avlodga musiqiy ohang o'z milliy musiqa san'atimiz, bastakorlik ijodiyotining betakror namunalarini, maqom san'atini bolaligidan uqtirib bormog'imiz zarur. Masalan maktabgacha ta'lim va maktabda ularga bu ohanglar sehrini qandayligini anglatishimiz darkor. Musiqa darslarida va ma'naviy dam olish paytida bu ohanglarni bolalarga oz-ozdan singdirib borish kelajakda yaxshi natija beradi. Musiqaga ixtisoslashtirilgan maktablarda shu ohanglarini kuylash bilan cheklanib qolmasdan bu ohanglarni ijro qilish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, biz o'sib borayotgan yosh avlodga musiqiy ohangi topishga yordam berishimiz zarur. Ularni milliy merosimiz bo'lgan maqom san'ati namunalarini yoshligidan uqtirib borishimiz darkor. Ularni san'atga, milliy merosimizga bo'lgan muhabbatini shakllantirib, o'z milliy qadriyatlarmizni, an'analarimizni hurmat qilishga o'rgatib borishimiz maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Begmatov S. Bastakorlik ijodiyoti Niso Poligraf 2017

Maksumova F.Q. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida – maqom san'ati fanini o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. 2023-y

www.uzmmsi.uz

www.O'zDKkonservatoriya.uz